#### Kurash choralari

Agrotexnik kurash: almashlab ekish, qator oralariga sifatli ishlov berish.

Biologik kurash: sabzavotlardagi zang kanasiga qarshi biologik kurash uchun oltinko`zni 3-4 kunlik tuxumini zararkunanda soniga qarab 1:10, 1:5 nisbatlarda chiqarish.

Kimyoviy usul: agarda zang kanasining miqdori ko`p bo`lganda quyidagi preparatlardan birini qo'llash tavsiya etiladi: omayt, 57% k.em. – 1,5 l/ga; nissoran, 10% n.kuk. – 0,1 kg/ga; flumayt, 20% sus.k. – 0,2 l/ga; ortus, 5% sus.k. – 0,75 l/ga; vertimek, 1,8% em.k. – 0,3-0,4 l/ga qo'llash.

## Tunlamlar

Sabzavot ekinlariga bir necha turdag'i tunlamlar jiddiy zarar keltiradi. Bular gamma tunlami, ko'sak qurti, ildiz qurti, yovvoyi tunlam, undov tunlami va boshqalardir.



**Gamma tunlami Karadrina Ko'sak qurti**

Bu tunlamlar sabzavot ekinlarida rivojlanib, keyinchalik g`o`za maydonlariga uchib o`tib, katta zarar keltiradi. Karadrina o`ta havfli zararkunanda bo`lib, davriy ravishda rivojlanib, o`simlik barglarini kemirib zarar yetkazadi.

### Kurash choralari

Agrotexnik kurash: almashlab ekish, qator oralariga sifatli ishlov berish.

Biologik kurash: sabzavotlardagi tunlamlarning tuxumlariga qarshi har gektar maydonga 1 grammidan trixogramma va kichik yoshdagi qurtlariga qarshi kurash uchun oltinko`zni 3-4 kunlik tuxumini zararkunanda soniga qarab 1:10, 1:5 nisbatlarda hamda katta yoshdagi qurtlariga qarshi brakonni 1:10 va 1:20 nisbatlarda chiqarish.

Kimyoviy usul: tunlam qurtlarining miqdori ko`p bo`lganda quyidagi preparatlardan birini qo`llash tavsiya etiladi: Avaunt, 15% sus.k. 0,4-0,45 l/ga; siperfos, 55% em.k. – 1,5 l/ga; del'tafos, 36% em.k. – 1,5 l/ga; politrin, 35% em.k. – 1 l/ga; detsis, 2,5% k.e. – 0,7 l/ga; mospilan, 20% n.k. – 0,3 l/ga; nurell-D, 55% em.k. – 1,5 l/ga; sumi-al`fa, 20% em.k. – 0,15 l/ga va boshqa ruxsat etilgan dorilar bilan ishlov berish tavsiya etiladi.

## **Kolorado qo`ng`izi**

Kolorado qo`ng`izi kartoshkaning eng havfli zararkunandasi bo`lib, respublikamizning Xorazm viloyati v Qoraqalpag`iston respublikasidan tashqari barcha viloyatlarida tarqalgan.



### **Qo`ng`iziLichinkasi**

Bu zararkunanda kartoshka bargini kemirib, zarar yetkazadi, ayrim yillari hosilni 50% gacha nobud qilishi mumkin.

Respublikamiz sharoitida kolorado qo`n`izi 3-4 ta avlod berib rivojlanadi.

Kartoshkadan tashqari u pomidor, ayniqsa baqlajonga jiddiy zarar yetkazadi.

### **Kurash choralar**

Agrotexnik kurash: almashlab ekish, qator oralariga ishlov berish, ularning miqdori kam bo`lganda qo`l kuchi bilan terib yo`qotish.

Kimyoviy usul: agarda kolarodo qo`ng`izining miqdori ko`p bo`lganda quyidagi preparatlardan birini qo`llash tavsiya etiladi: Adonis, 4% e.k. – 0,25 l/ga; regent, 20% sus.k. – 0,1-0,16 l/ga; sipermetrin, 25% k.e. – 0,16 l/ga; konfidor, 20% e.k. – 0,05 l/ga; karate, 5% k.e. – 0,1 l/ga sarf me`yorida qo`llash tavsiya etiladi.

### **Karam biti**

Karam biti (shirasi) ikki yillik butgulli begona o`tlarda tuxumlik, lichinkalik va partenogenetik urg`ochi zotlari holida qishlaydi. Karam biti yiliga 16 marta avlod berib, rivojlanadi; kuzda har bir urg`ochi zot 2-4 qishlovchi tuxumlar qo`yadi.



**Karam biti (*Brevicoryne brassicae* h.)**  
**1-qanotlisi; 2-qanotsizi; 3-tuxumi; 4-5-lichinkasi; 6-zarari**

Yetuk zotlari valichinkalari karam barglarida to`p-to`p joylashib, so`rib oziqlanishlari natijasida dastlab barglar rangsizlanadi keyin sal qizaradi, burishib o`zgaradi va so`liydi.

#### Kurash choralari

Agrotexnik tadbirlar: qishlovchi butgulsimon begona o`tlarni, karam qoldiqlarini daladan yo`qotish; karamni chidamliligini oshirish tadbirlarini (qo`shimcha oziqlantirish, qator oralariga sifatli ishlov berish, ko`llatmasdan sug`rish) o`tkazish.

Biologik usul: oltinko`z entomofagini 3-4 kunlik tuxumlaridan 1:10, 1:20 nisbatlarda 10 kun oralatib 2 marta karamlarga qo`yib chiqish.

Kimyoviy usul: 5-10% o`simlikda shira to`dalari paydo bo`lgach detsis, 2,5% em.k. – 0,3 l/ga; Fufanon, 57% em.k. – 0,6-1,2 l/ga; f`yuri, 10% s.e.k. – 0,1 l/ga va boshqa ruxsat etilgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

## Karam oq kapalagi

Karam oq kapalagi g`umbaklik bosqichida eski binolarda, devor yoriqlarida, daraxt tanalarida va butalar orasida qishlab chiqadi. Aprel-may oylarida kapalaklari uchib chiqib otalangan urg`ochi zotlar har biri 250-300 tuxumlarini karam barglariga to`p-to`p qilib qo`yadi. Qurtlari karam barglarini yoppasiga kemirib, barglarni faqat yo`g`on tomirlarinigina qoldiradi. Qurtlari 15-30

kunoziqlanib, daraxt va butasimonlar tanalarida, tashlandiq binolar devor yoriqlarida g`umbakka o`tadi. Karam oq kapalagi 3-4 avlod berib rivojlanadi.

### Kurash choralari

Agrotexnik tadbirlar: butgulsimon begona o`tlarni, ayniqsa gullayotganlarini zudlik bilan yo`qotish.

Biologik usul: karak oq kapalagini tuxumiga qarshi trixogramma entomofagidan 1 grammidan har bir avlodiga 3 marta 4-5 kun oralatib tarqatiladi; o`rta va katta yoshdagi qurtlariga qarshi 1:20, 1:10, 1:5 nisbatlarda brakon entomofagi tarqatiladi.

Kimyoviy usul: 5 % o`simglikda zararkunanda tuxum va qurti mavjud bo`lsa detsis, 25% em.k. – 0,3 l/ga; fufanon, 57% em.k. – 0,6-1,2 l/ga; kinmek, 5% em.k. – 0,15-0,2 l/ga; lyumetrin, 12% em.k. – 0,45-0,6 l/ga; sumi-al’fa, 5% em.k.-0,2 l/ga; esfen-al’fa, 5% em.k.-0,2 l/ga; superkill, 25% em.k.-0,16 l/ga, tsipi, 25% em.k. -0,16 l/ga; tsiraks, 25% em.k. – 0,16 l/ga; tsipermetrin, 25% em.k. – 0,1 l/ga preparatlarning birortasi bilan ishlov beriladi.

## Piyoz pashshasi

Piyoz pashshasi piyoz va sarimsoq piyozga zarar yetkazadi. Soxta g`umbaklari tuproqning 10-20 sm chuqurligida piyoz ekilgan dalalarda qishlaydi.Pashshalari aprel-may oylarida uchib o`simglikka yaqin tuproq bo`lakchalariga va piyoz barglariga 5-12 tadan tuxum qo`yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar piyoz bilan oziqlangach, piyozlar irib ketadi.Bitta piyozda 10-15 ta lichinka rivojlanadi. Piyoz pashshasi yiliga 2 marta avlod berib rivojlanadi.

### Kurash choralari

Agrotexnik tadbirlar: bir marta piyoz ekilgan dalaga qayta 3-4 yildan keyin piyoz ekish tavsiya etiladi. Piyoz va sarimsoq piyozdan bo`shagan dalalar chuqr kuzgi shudgor qilinadi, piyozdan bo`shagan dalalarda o`simglik qoldiqlari yo`qotiladi, piyoz erta muddatlarda ekilishi lozim.

Kimyoviy usul: piyoza pashshalarni yoppasiga uchish davrida tsiraks, 20% em.k. – 0,5 l/ga; fenkill, 20% em.k. – 0,3 l/ga va boshqa ruxsat etilgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

## **Sabzi pashshasi**

Asosan sabziga, ba'zan boshqa murakkabguldoshlarga ham zarar yetkazadi.Zararlangan ildizmevalar chirib ketadi.G`umbagi tuproq ustki qatlamlarida qishlaydi. Sabzi pashshasi har bir o'simlikka 10-12 tadan, ja,i 100-1200 tagacha tuxum qo'yadi. Sabzi pashshasi yiliga 2 marta avlod berib rivojlanadi.

### **Kurash choralari**

Agrotexnik tadbirlar: yangi sabzi ekinini eski ekin maydonidan uzoqroq joylashtirish; kuzgi shudgorlashni sifatli o'tkazish; sabzi ko'chatlarini siyraklatib qo'yish.

Kimyoviy usul: pashshalarni yoppasiga uchish davrida tsiraks, 20% em.k. – 0,5 l/ga; fenkill, 20% em.k. – 0,3 l/ga va boshqa ruxsat etilgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

## **Poliz qo`ng`izi**

Barcha poliz ekinlarini lichinka va qo`ng`izlari kemirib zararlaydi. Qo`ng`izlari tuproqni yuza qatlamida, o'simlik qoldiqlari ostida qishlaydi.Tuxumlarini barglarni ostki qismiga to`p-to`p qilib (20-40 tadan) qo'yadi.Qo`ng`izlari 1300 tagacha tuxum qo'yadi. Poliz qo`ng`izi bir yilda 2-3 marta avlod berib rivojlanadi.

### **Kurash choralari**

Agrotexnik tadbirlar: barcha poliz ekinlari ekilgan maydonlarida o'simlik qoldiqlarini yig'ib olib yo'qotib tashlanadi; yerni chuqur shudgor qilish lozim; poliz ekilgan maydonni 100 m atrofida begona o'tlar yo'qotiladi.

Kimyoviy usul: fenkil, 20% em.k. – 0,5 l/ga (qovun); tsiraks, 20% em.k. – 0,08 l/ga, tsipi, 25% em.k. – 0,24-0,32 l/ga va boshqa ruxsat etilgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

*Sabzavot – poliz va kartoshka ekinlarini kasallikklardan himoya qilish*

## **Pomidor kasalliklari**

### **Pomidorning fuzarioz so'lish kasalligi**


Vilt kasalligida pomidorning pastki barglari, ko'pincha bir tomondan, sarg`ayishi va o'simliklar so'lg'in bo`lib qolishi kuzatiladi. So'lg'an barglar quriydi, biroq tushmasdan, novdalarda osilib qoladi. Novdalar ham o'simlikning bir tominida so'lishi mumkin, keyinchalik butun o'simlik so'liydi.



Novdalar ustida sariq chiziqchalar paydo bo'ladi. Zararlangan o'simliklar so'lishdan oldin zaiflashadi va bo`yi juda past bo`lib qoladi, zararlangan pomidor o'simliklarining ildiz bo`g`zida pushti mog`or ko`rinishi mumkin. Zamburug`ning sporalari tuproqda 11 yilgacha saqlanishi hamda qo`zg`atuvchi urug` orqali o'tishi mumkin.

## Kurash choralari

Tuproqni ildiz yetgan chuqurlikkacha, odatda 25 sm gacha, zararsizlantirish muhim ahamiyatga ega. En samarali usul – bug` bilan zararsizlantirish. Fuzarioz so`lishning juda kuchli rivojlanishi kuzatiladigan mintaqalarda zararsizlantirilgan tuproqqa chidamli navlarni yoki payvand qilingan pomidor ko`chatlarini ekish tavsiya qilinadi.



**Fuzarioz so`lishi**

Urug`likni samarali fungitsid bilan dorilash, almashlab ekish, o`simlik qoldiqlarini yo`qotish, ekin yaxshi o`sishi va rivojlanishi uchun zarur agrotexnika qoidalariga rioya qilish, o`simliklarning qo`shimcha tomirlari rivojlanishi uchun tuproq ustiga mul`cha solish, kasal ko`chat va o`simliklarni olib tashlash, ortiqcha azotli o`g`it bermaslik, so`lishga chidamli navlarni ekish – tuproqni zararsizlantirishga qo`shimcha kurash choralari deb hisoblanadi. Biologik kurash chorasi sifatida Trixodermin preparatini qo`llash ham yaxshi natijalar beradi.

## **Pomidor vertitsillyoz so`lish kasalligi**

Kasallik meva tugish paytida boshlanadi. O`simlikning pastki barglarida (ko`pincha bir tomonida) rangsiz, keyin sariq va nihoyat qo`ng`ir tus oluvchi, qizg`ish hoshiyali dog`lar paydo bo`ladi va barglar so`liy boshlaydi.



O`g`it berib sug`orilsa ham, kasallangan o`sish va rivojlanishdan to`xtaydi. Poyaning pastki qismi qiya kesilsa, o`tkazuvchi to`qimalarning sarg`ish-qo`ng`ir tus olgani va qo`ng`ir dog`lar mavjudligi ko`rinadi. Bunday dog`lar tuproq sathidan (ildiz bo`g`zidan) tepaga qarab 1 metr va undan ham ko`proqqa tarqaladi. Salqin havoda kasallik kuchayadi, dog`lanish poya tepasigacha yetadi. Kasallik pomidordan tashqari, g`o`za, kartoshka, baqlajon, bodring, qalampir va boshqa ko`p ekinlarni zararlaydi. Sporalari tuproqda 20 yilgacha saqlanishi mumkin.


### **Kurash choralar**

Issiqxonada tuproqni 25 sm gacha bug` bilan zararsizlantirish muhim ahamiyatga ega. Yana bitta o`ta samarali usul – issiqxonada 3 kun davomida 25<sup>0</sup>C dan yuqori harorat bo`lishi ta'minlansa, kasallik rivojlanmaydi, harorat keyinchalik pasaysa ham viltning rivojlanishi keskin kamayadi; agar buning iloji bo`lmasa, kunduzlari meva tugish boshlangunigacha 18-22<sup>0</sup>C, meva tugish paytida 20-22<sup>0</sup>C, kechalari 15-16<sup>0</sup>C haroratni ta'minlash lozim. Umuman, fuzarioz viltga qarshi

tavsiya qilingan kurash choralari vertitsillyoz viltga ham samara beradi.Undan tashqari, solyarizatsiya usulini qo'llash ham tavsiya qilinadi.

## Pomidorning fitoftoroz kasalligi

Kasallik o'simliklar gullash paytida boshlanadi. Barg bandlari pastga bukiladi va barglar osilib qoladi; barglarning ustida qaynoq suvga kuyganga o'xshash dog'lar paydo bo'lib, ular so'ngra qo'ng'ir yoki to'q-qo'ng'ir tus oladi, keyinchalik barg to'qimasi biroz oqarib, yupqa qog'ozsimon bo'lib qoladi. Nam ob-havoda barglar ostidagi dog'lar atrofida mayin, yupqa, oqish mog'or qatlami paydo bo'ladi. Yuqori namlik va iliq haroratda barglar butunlay chirishi va deyarli barcha o'simliklar nobud bo'lishi mumkin.



To'pgullar zararlanganida gulbandlar va kosachabarglari qorayadi va qurib qoladi. Zararlangan novdalarda uzunchoq yoki o'zgaruvchan shaklli, qizg'ish-qo'ng'ir dog'lar rivojlanadi, novda va barglar kuyganga o'xshab qoladi. Mevalar ustida qattiq, noto'g'ri shaklli, qo'ng'ir tusli, usti biroz g'adir-budur dog'lar va yaralar paydo bo'ladi.




## Kurash choralari

Chidamli navlar ekish; jo`yaklarni baland olish; ekishdan oldin urug`ni samarali urug` dorilagich bilan dorilash; almashlab ekish; oldingi yili pomidor yoki kartoshka ekilgan dalalarga ekmaslik; boshqa kartoshka va pomidor ekinlaridan uzoqroqdagi dalalarga ekish; ekin ichida shamol yaxshi yurishini ta'minlash (ortiqcha shoxlarini o`z vaqtida butash, ventilyatsiya); azotli o`g`itlarning tavsiyadagi minimal miqdorlarini berish; o`suv davrida ertangi kartoshka ekinida kasallikning birinchi belgilari ko`rinishi bilan pomidor o`simliklariga profilaktika uchun fungitsid (mankotsebni alohida yoki metalaksil bilan aralashmasini, 0,2% li ridomil, 0,5% li kaptan, 0,4% li mis xloroksiidi, 1% li Bordo suyuqligi va b. purkash; o`simlik qoldiqlarini daladan chiqarib, yo`qotish tavsiya qilinadi.

## Pomidorning qo`ng`ir dog`lanish kasalligi

Kasallik pomidorning gullash-meva tugish paytlarida boshlanadi va asosan barglarini zararlaydi. Uning birinchi belgilari – pastki barglar ustida sariq yoki och-yashil dog`lar, barglar ostida esa (o`sha dog`larning tagida) rangsiz, sarg`ish yoki och-qo`ng`ir dog`lar paydo bo`lishidir. Barg ostidagi dog`lar yashil-qo`ng`ir (yoki kulrqang-qo`ng`ir) tusli mayin mog`or bilan qoplanadi. Kasallik tezda tepe yarus barglariga o`tadi. Kuchli zararlangan barglar olachipor tus oladi va quriydi.



Kasallik kuchli rivojlanganida pomidorning gul va meva bandlari, gulkosabarglari va tugunchalari ham zararlanadi va ular keyinchalik to`kilib ketadi. Kasallikning eng kuchaygan davri meva pishish paytiga to`g`ri keladi.

Mevalar ustida bo`rtgan, qattiq, zaytun rangli, mog`or bilan qoplangan dog`lar bo`ladi.

### Kurash choralari

Chidamli navlar ekish; issiqxonalarda almashlab ekishni yo`lga qo`yish; havo harorati 24-25 °C bo`lishini (iloji bo`lmasa 17-18°C dan pasaymasligini) ta'minlab turish, namlik 65-70% dan oshib ketmasligi uchun ularni tez-tez shamollatish, urug`likni ekishdan oldin samarali fungitsid (vitavaks 200 FF) bilan dorilash; o'sish davrida bayleton, 25% n.kuk. (0,5-1,0 kg/ga), vektra, 10% sus.k.(0,3 l/ga), topsin-M, 70% h.kuk. (1,0 kg/ga), folikur BT, 22,5% em.k. (0,3-0,5 l/ga), 1% li Bordo suyuqligi, mis oksixloridi, 90% nam.kuk. (2,4 kg/ga) yoki boshqa fungitsidlardan birini purkash yoki suvga benomil qo'shib sug`orish tavsiya qilinadi.

## Pomidorning kulrang chirish kasalligi

Kasallik bilan oldin gullar zararlanadi, keyinchalik barglarga, barglardan poyaga o'tadi. Barglarda och-qo`ng`ir, dumaloqroq shaklli dog`lar paydo bo`ladi va ular bargni butunlay qoplashi mumkin. Poyada odatda och-qo`ng`ir, uzunligi 1 mm dan bir necha sm gacha bo`lgan quruq dog`lar rivojlanadi, vaqt o'tishi bilan zararlangan joylar qora tus oladi.



Novdalarda rangsiz, ustida kulrang mog'or paydo qiluvchi dog`lar rivojlanadi. Mevalarning ustida, odatda ular novdaga birikkan joylarida, kulrang-yashil va kulrang-qo`ng`ir yaralar rivojlanadi va mevalar o'sha joylaridan boshlab chiriydi.

### Kurash choralari

Kasallik kuchli rivojlanishi uchun lozim bo`lgan shartlardan eng muhimi – yuqori havo namligi uzoq vaqtgacha mavjud bo`lishidir. Pomidorning pastki barglarini yulib olib tashlash va issiqxonani isitish va shamollatish yordamida namlik 70-80% bo`lishi ta'minlansa, ekin kuchli zararlanmaydi.

Infeksiya to`planishining oldini olish uchun zararlangan o`simlik qoldiqlarini issiqxonadan chiqarib, yo`qotish lozim. Kasallik kuchli rivojlanish xavfi bo`lsa, ekinga fungitsid purkash tavsiya qilinadi.

## Pomidorda bodring mozaikasi

Pomidorda kasallikni bodring mozaikasi virusi qo`zg`atadi. Pomidordan tashqari yuzlab o`simlik turlarini zararlaydi. Kasal o`simliklarning bo`yi va poya bo`g`in oralarining uzunligi kamayadi, barglar ingichkalashib, ba`zilari deyarli ip shakliga kiradi.



**Pomidor novdasida bodring mozaikasi belgilari**

Mevalar o'smay qoladi, xunuk shakl oladi. Virus o'simlik qoldiqlarida saqlanmaydi, payvand qilganda ham kasal pomidordan sog'lomiga qiyinchilik bilan o'tadi. Odatda u zararlangan shaftoli yashil shirasi bilan o'tadi; bodring mozaikasi erta boshlansa, hosil dalalarda 10-15%, issiqxonalarda 50 foizgacha pasayishi mumkin. Kasallikka chidamli navlar mavjud emas.

#### Kurash choralar

Urug'ni ekishdan oldin  $70^{\circ}\text{C}$  da 4 kun davomida yoki kaliy permanganatning 1% eritmasi bilan 20 daqiqa davomida zararsizlantirish va suv bilan yaxshilab yuvish;

Urug`larni og`irligi bo'yicha saralash va osh tuzining 5% li eritmasiga solib 3 daqiqa davomida aralashtirish, ustiga chiqqanlarini doka bilan olib tashlash, cho'kkalarini suv bilan bir necha marta yuvish, dorilash va quritish;

Nihol yetishtirish jarayonida 2 marta (ko'chat qilish – pikirovka va doimiy joylarga ekish paytida) yog'i olingan sutning 10% eritmasi bilan profilaktik ishlov berish.

## Pomidorda tamaki mozaikasi

Virus o'simlik o'sishini va hosil tugishini kechiktirishi mumkin. Ba'zan pomidor mevalari zararlanadi va ularning ustida qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi.



**Pomidor barglari va mevalarida tamaki mozaikasi belgilari**

TMB juda barqaror, u o'simlik qoldiqlarida 50 yilgacha saqlanadi. Virus o'simliklarga qo'l bilan tekkanda ham tarqaladi. Kasal o'simliklardan sog'lomlariga virus ishchilar ishlagan paytda, mashinalar, jihozlar va asbob uskunalar orqali mexanik usulda o'tadi. Virus tamaki ustida mavjud bo'lib, chekuvchi ishchilar tomonidan ekinga tarqalishi mumkin.

Infeksiya o'simlik qoldiqlarida saqlanadi va keyingi yili ekilgan pomidor nihollarini ildizi orqali zararlaydi. Tabiiy o'choqlari qurtena (*Sysymbrium loeselii*) da qayd etilgan. Pomidorga virus kemiruvchi hasharotlar (chigirtka va qo'ng'izlar) vositasida o'tishi isbotlangan. Dalada virus mozaika bilan zararlangan begona o'tlardan (bangidevona, ituzum, yovvoyi tamaki, gorchitsa va b.q.) pomidorga tarqaladi. Bir mavsumdan ikkinchisiga virus urug'dan ham o'tishi mumkin, asosan ko'chatlarni yaganalash va dalaga ko'chirib ekish paytida tarqaladi. Kasallik erta boshlanganda hosil dalalarda 10-15%, issiqxonalarda 50 foizgacha pasayishi mumkin.

### Kurash choralari

- viruslar bilan kasallangan kartoshka dalalariga pomidor ekmaslik;
- almashlab ekishni joriy etish (pomidor va baqlajon uchun eng yaxshi o'tmishdoshlar – poliz ekinlari va boshqoli o'tlar, qoniqarlilari – karam, ildizmevali ekinlar, piyoz va sabzavotlardir);
- urug`ni bevosita dalalarga ekish;
- kartoshka ekinlari yoki tuganaklari bilan ishlagandan so'ng pomidor ekinlari ichiga kirmaslik;
- pomidor tup sonini oshirish tavsiya qilinadi.

## **Pomidorning juft strik kasalligi**

Juft strik kasalligi ochiq dalalarda va ayniqsa issiqxonalarda keng tarqalgan. Kasallik barglarga olachipor tus beruvchi och-yashil dog`lar va kichik kul rang-qo`ng`ir nekrozlar, novdalarda qo`ng`ir chiziqlar paydo bo`lishi bilan boshlanadi. So`ngra dog`lar yashil, sariq va qo`ng`ir tus oladi, barglar o`smanydi va rivojlanmaydi, pastga qarab bukiladi; dog`lar qo`shilib, butun bargni qoplaydi, barg nobud bo`ladi. Ayrim novdalarning uchi quriydi, o`simpliklar pakana bo`lib qoladi. Umuman, poya, novda, barg bandi va meva bandlarida uzuq-uzuq chiziq va tasmasimon dog`lar rivojlanadi. Mevalar soni kamayadi, ular dag`al, qattiq bo`lib qoladi, ustlari har xil hajmdagi qo`ng`ir, suv shimib olganga o`xhash yaralar bilan qoplanadi.

### **Kurash chorralari**

- Juft strik bilan zararlangan pomidor, tamaki, baqlajon, qalampir, kartoshka ekinlaridan keyin pomidor ekmaslik;
- almashlab ekishni joriy etish (pomidor va baqlajon uchun eng yaxshi o`tmishdoshlar – poliz ekinlari va boshoqli o`tlar, qoniqarlilari – karam, ildizmevali ekinlar, piyoz va sabzavotlardir);
- urug`ni bevosita dalalarga ekish;
- kartoshka ekinlari yoki tiganaklari bilan ishlagandan so`ng pomidor ekinlari ichiga kirmaslik;
- pomidor tup sonini oshirish tavsija qilinadi.

## **Kartoshka nihollari rizoktoniozi**

Zararlangan o`simplik qoldiqlari va kartoshka tiganaklari nihollar uchun asosiy infeksiya manbai hisoblanadi. Urug`lik tiganaklar sovuq va nam tuproqqa ekilganda, nihollar tez unib chiqa olmaydi, tuproq ichida chiriydi, ularning ildizpoyalari va ildiz bo`g`zida biroz botiq, qo`ng`ir yaralar paydo bo`ladi, ba’zan nihollar so`lib qoladi.

Bir ekin turi dalada uzoq yillar davomida o'stirilganda, tuproqda o'sha ekinni juda kuchli zararlaydigan populyatsiya to'planib, yildan-yilga ko'payib boradi.

### Kurash choralari

- kartoshka hosilini ehtiyotkorlik bilan kavlab olish, qoplash, tashish va omborxonalarga joylash. Yangi to'plangan tuganaklarni biroz yuqori namlik sharoitida saqlash ularning ustidagi yaralar qotishini ta'minlaydi va infeksiya tarqalishini kamaytiradi.
- kartoshkani quruq, zararsizlantirilgan omboxonalarda 3-5°C harorat va 90-95% nisbiy namlik sharoitida saqlash; urug'lik sifatida sog'lom tuganaklarni kesmasdan, fungitsid bilan dorilab ekish.
- o'suv davrida tuproq namligi bo'lishini ta'minlash, dalaga organik va mineral o'g'itlar balansini saqlagan holda solish, nordon tuproqlarni ohaklash.
- almashlab ekishni joriy etish;
- chidamli navlar ekish.

## **Kartoshka tuganaklari fuzarioz quruq chirishi**

Kartoshka tuganaklari o'suv davrida odatda zararlanmaydi, ularning ko'pchiligi hosilni kavlab olish, qoplash, omborxonaga tashish va joylash paytlarida zararlanadi.

Zararlangan tuganaklar ustida oldin qaynoq suvda kuyganga o'xshash, biroz botiq dog'lar paydo bo'ladi. Ular o'sib, kattalashadi, kulrang-qo'ng'ir tus oladi va ostidagi to'qimalarga va tuganak ichiga o'tadi. To'qimalar quruq chirib, kukunga o'xshab qoladi, tuganak ichida bo'shliqlar, kavaklar paydo bo'lib, u yerda zararlagan zamburug' turi bilan bog'liq holda, har xil rangli mog'or rivojlanadi.

Kasallik ko'pincha tuganaklar 2-3 oy saqlanganda paydo bo'ladi. Fuzarioz bilan yengil zararlangan kartoshkalarda chirish kuchayadi. Hatto normal sharoitda ham 10% gacha tuganaklar chirib ketadi; yuqori harorat va namlikda kartoshkaning 30-50% va undan ko'prog'i yo'qotilishi mumkin.

## Kurash choralari

- tuganaklarni biroz yuqori namlik sharoitida saqlash ularning ustidagi yaralar qotishini ta'minlaydi va infeksiya tarqalishi kamaytiradi.
- kartoshkani quruq, zararsizlantirilgan omborxonalarda 3-5°C harorat va 90-95% nisbiy namlik sharoitida saqlash.
- urug'lik sifatida sog'lom tuganaklarni kesmasdan, fungitsid bilan dorilab ekish.
- o'suv davrida tuproq namligi 60-85% atrofida bo'lishini ta'minlash, dalaga organik va mineral o'g'itlar balansini saqlagan holda solish, nordon tuproqlarni ohaklash.
- almashlab ekishni joriy etish.

## **Kartoshka vertitsillyoz so'lishi kasalligi**

So'lish odatda o'simliklar gullash davrida yoki keyinroq, ko'pincha pastki barglarning bir tomoni sarg'ayishi bilan boshlanadi. Poyaning pastki qismi qiya kesilsa, o'tkazuvchi to'qimalarda qo'ng'ir dog'larni ko'rish mumkin. Ko'pincha o'simliklar, so'limasdan sarg'ayadi, vaqtidan oldin yetiladi va quriydi.

Tuganaklari ichida va o'tkazuvchi to'qimalarda yoki ularning bir qismida och-qo'ng'ir, katta tuganaklarning ko'zchalarida esa pushtiroq yoki qizg'ish dog'lar paydo bo'ladi. Bunday tuganaklar omborxonada saqlash paytida chirib ketadi. Zamburug' o'simlik qoldiqlarida va tuproqda ko'p yillar davomida, keyingi mavsumgacha zararlangan tuganaklarda ham saqlanadi.

## Kurash choralari

- almashlab ekish;
- urug'lik tuganaklarni ekishdan oldin fungitsid bilan dorilash;
- dalani keragidan ortiqcha yoki kam sug'ormaslik;
- sistemali fungitsidlardan birini purkash tavsiya qilinadi.

## **Kartoshka fitoftoroz kasalligi**

Kasalligi o'simliklar gullash paytida boshlanadi. Barglarda qaynoq suvdan kuyganga o'xshash dog'lar paydo bo'lib, bir necha kundan so'ng sariq hoshiyali qo'ng'ir yoki to'q-qo'ng'ir tus oladi. Ular ustida ko'zga yaqqol tashlanuvchi kulrang-qo'ng'ir, so'ngra botiq, to'q-qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi; tugunak kesilsa, uning chetlaridagi to'qimalarda zang chirishni ko'rish mumkin. Bunday tuganaklar omborlarda saqlash paytida ikkilamchi mikroorganizmlar ta'sirida tezda butunlay chiriydi. Kasallik rivojlanishi tez-tez yomg'ir yoki sgabnam, 20-25°C qishlaydi. Zararlangan kartoshka tuganaklari asosiy infeksiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Kasallik ekinga qo'shni dalalardagi kartoshka va pomidordan ham o'tadi.

## **Kurash choralar**

- chidamlı navlar ekish;
- jo'yaklarni baland olish;
- ekishdan oldin urug'likni sog'lomlarini tanlab olish va samarali urug'dorilagich bilan dorilab ekish;
- almashlab ekish;
- o'suv davrida previkur, 60,7% s.e. (1,5 l/ga), ridomil gold, 68% n.kuk. (2,5 kg/ga) yoki boshqa fungitsidlardan birini purkash.

## **Kartoshka tuganak qora kalmaraz kasalligi**

Kartoshkaning tuganak, novda, poya, ildizpoya va ildizlarini zararlaydi. Kasal tuganaklar ekilganda, nihollarga katta zarar yetkazadi, ularni juda siyrak qilib qo'yadi, chunki nihollar tuproq yuzasiga chiqmasdan yoki chiqqandan so'ng tezda chiriydi. Urug'lik tuganaklar chuqur ekilsa, nobud bo'lgan nihollar soni oshadi. Ildizpoya va poyaning pastki qismida biroz botiq, hajmi va shakli har xil bo'lgan qo'ng'ir dog'lar va yaralar, ularning ustida sarg'ish-qo'ng'ir gifalar qatlami paydo bo'ladi. Zararlangan tuganaklar ustida qattiq, to'q-qo'ng'ir, so'ngra qorayuvchi, shakli har xil sklerotsiyalar rivojlanadi.

Kasallik yuqori namlik va  $9-27^{\circ}\text{C}$  (optimum  $15-21^{\circ}\text{C}$ ) haroratda yaxshi rivojlanadi. Soztuproqlarda kamroq, qumoq tuproqda ko`proq uchraydi va o`simpliklarni kuchliroq zararlaydi.

Kasallikka chidamli kartoshka navlari mavjud emas. Kartoshka hosilining 16-25 foizini yo`qotishi aniqlangan.

#### Kurash choralar

- urug`lik uchun sog`lom tunganaklar qo`llash va sayoz ekish;
- ekishdan oldin samarali fungitsid bilan dorilash;
- hosilni o`z vaqtida yig`ib olish tavsiya qilinadi.

#### **Kartoshkaning fomoz (gangrena) kasalligi**

Oldin tunganaklarning qobig`i ostida botiq dog`lar paydo bo`ladi. Ular kattalashib, to`q kulrang-qo`ng`ir, qizg`ishroq-qoramtilrang oladi, chetlari aniq bo`lib, tunganaklarning ichiga o`tib ketgan chirigan joylar rivojlanadi. O`suv davrida fomoz novda, poya va barg bandlarida cho`zinchoq dog`lar, so`ngra ularning ustida piknidalar hosil qiladi. Sporalar yomg`ir paytida chiqadi, yomg`ir tomchilar va shamol yordamida boshqa o`simpliklarni, tuproqqa tushganlari esa, yangi hosil tunganaklarini zararlaydi.

#### Kurash choralar

- kartoshka hosilini avaylab kavlab olish, qoplash, tashish va omborxonalarga joylash;
- tunganaklarni biroz yuqori namlik sharoitida saqlash ularning ustidagi yaralar qotishini ta'minlaydi va infeksiya tarqalishini kamaytiradi;
- kartoshkani quruq, zararsizlantirilgan omborxonalarda  $3-5^{\circ}\text{C}$  harorat va 90-95% nisbiy namlik sharoitida saqlash;
- urug`lik sifatida sog`lom tunganaklarni kesmasdan, fungitsid bilan dorilab ekish.
- o`suv davrida tuproq namligi 60-85% atrofida bo`lishini ta'minlash, dalaga organik va mineral o`g`itlar balansini saqlagan holda solish, nordon tuproqlarni ohaklash.
- almashlab ekishni joriy etish

## **2.4.MEVALI DARAXTLARNI ZARAKUNANDA VA KASALLIKLARDAN HIMOYA QILISH**

*Mevali daraxtlarni zararkunandalardan himoya qilish*

Mevali bog`lar ekin maydonlarini va ularning hosildorligini oshirishning asosiy omillaridan biri – bu mevali bog`larni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishdir. Mevali bog`larda zarar keltirib yashovchi 150 dan ortiq zararkunanda va kasalliklar ma`lum. Bunday zararkunandalar bioekologiyasi va kasallik qo`zg`atuvchi mikroorganizmlarni yaxshi bilish lozim. Kurash tadbirlarini kasallik qo`zg`atuvchi mikroorganizm va zararkunandalarning eng zaif davrida o`tkazish o`ta muhimdir.

### **Barg bitlari**

**Zarari.** Barg bitlari barglarni burishtirib qo`yadi, ba`zan esa to`kib yuboradi, yosh novdalarni o`stirmay qing`ir-qiyshiq qilib qo`yadi va meva hosilini kamaytirib yuboradi. Yosh ko`chatlar, jumladan yosh shaftoli daraxtlariga bitlar ayniqsa ayniqsa katta zarar yetkazadi: meva shirasini so`rib, sifatini pasaytiradi; nimjon bo`lib qolgan daraxtlarga ikkilamchi zararkunanda – po`sloq osti qo`ng`izlari tushib zararlaydi; daraxtlar qurib qoladi; yosh meva daraxtlariga katta ziyon yetkazadi. Bularning oldini olish uchun barg bitlariga qarshi kimyoviy preparatlar bilan ishlov beriladi. Bahor oxirlarida bitlarning ko`p turlari meva daraxtida boshqa o`simliklarga yoki sabzavotlarga o`tadi.

**Kurash chorralari.** Ko`pgina yirtqich va parazitlar – xonqizi, sirfid pashshasi, oltinko`z, yaydoqchi kabi foydali hasharotlar barg bitlari bilan oziqlanib ularning miqdorini kamaytiradi; ularning miqdori ko`payib ketganda qo`llash uchun ruxsat etilgan kimyoviy preparatlar yordamida kurash o`tkaziladi.

### **Qon biti**

Qon biti olma, nok va boshqa mevali daraxtlarning ildizini, tana va shoxlarining shirasini so`rib, daraxtlarni kuchsizlantiradi. Bitning shira so`rgan joylarida g`uddalar paydo bo`ladi, ular keyinchalik yorilib, chiriydi. Qon biti tushgan yosh daraxtlar ko`pincha qurib qoladi, qari daraxtlar esa kuchsizlanib,

hosili juda kamayib ketadi. Qon biti ko'p tushgan shoxlar quriydi. Fevral-mart boshlarida bitlar qishlovdan chiqadi va daraxtlarga o'rmalab chiqib, po'stlog'i nozik yoki zararlangan joylariga o'rnashib oladi. Bitlarning galalari sidirg'a mim par bilan qoplanadi. Qon biti yoz bo'yи 15-17 ta avlod berib rivojlanadi.

**Kurash choraları.** Qon biti tushgan bog' ko'chatzorlaridan ko'chatlar olinganda, albatta zararkunandaga qarshi fumigatsiya qilinishi shart. Qon bitiga qarshi kurashda kimyoviy vositalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Qon biti yosh lichinkalik davrida sistemali ta'sir etuvchi imidokloprid asosli preparatlar bilan ishlov berish kerak.

### Olma biti

Rozmarin, Qandil sinap, Simirenko kabi olma navlariga olma biti ko'proq tushadi. So'nggi avlodning urg'ochi bitlari chatishgandan keyin tuxum qo'yadi. Har bir urg'ochi bit yosh novdalarga 1-5 tadan tuxum qo'yadi; kuzda, daraxt barglari to'kilgandan keyin barg bitlarining qora tuxumlari ko'zga yaqqol ko'riniq qoladi. Tuxumlardan kelgusi yil ko'klamlaridagina lichinkalar chiqadi.

**Kurash choraları.** Zararkunanda kuchli zararlagan va tuxum qo'yan shoxlarni ko'klamda qirqib tashlab, albatta kuydirish kerak; hosil uchun ahamiyati bo'limgan erkak novdalar ham ko'klamda va yozda qirqib tashlanadi, chunki bularda bitlar ommaviy rivojlanadi. Ularga qarshi sistemali ta'sir etuvchi imidaklopid asosli preparatlar bilan ishlov berish kerak.

### Shaftoli biti

Shaftoli biti shaftoli, o'rik, olxo'ri va bodomga, ba'zan behi bilan olmaga zarar yetkazadi. Bit so'rib zararlagan daraxtlar yaxshi meva qilmaydi, yosh daraxtlar esa ba'zan nobud bo'ladi.

Zararkunanda lichinkalari mart oyida paydo bo'ladi. Bitlar tez ko'payadi; yoz bo'yи kamida 11 ta avlod beradi. Urg'ochi bit bir-ikki oy yashaydi. Shuning uchun bir to'dada bir necha avlod vakillari uchraydi. Shaftoli katta biti yo'g'on barg va shoxlar asosida, ko'pincha ularning pastki tomonida va daraxt tanasida to'p-to'p bo'lib olib, daraxt shirasini so'rib uni quvvatsizlantiradi.

**Kurash choraları:** Zararkunanda kuchli zararlagan va tuxum qo'yan shoxlarni ko'klamda qirqib tashlab, albatta kuydirish kerak; hosil uchun ahamiyati bo'limgan erkak novdalar ham ko'klamda va yozda qirqib tashlanadi, chunki bularda bitlar ommaviy rivojlanadi. Ularga qarshi sistemali ta'sir etuvchi imidaklopid asosli preparatlar bilan ishlov berish kerak.

### Meva o'rgimchakkani

O'rgimchakkana odatda olma daraxtiga zarar yetkazadi, ammo boshqa urug'li va danakli meva daraxtlariga ham tushadi. O'rgimchakkana zararlagan barglar dastlab sarg'ayadi, keyin esa qo'ng'ir tusga kirib to'kilib ketadi. Meva o'rgimchakkani daraxt tanasidagi po'stloqlar ostida va daraxt tanasidagi yoriqlarning ichida, begona o'tlar qoldig'i tagida, shoxlarda va qisman shoxlardagi kurtaklar yaqinida to'p-to'p bo'lib qishlaydi. Zararkunanda mevali daraxtlar bargi hujayrasining shirasini so'rib oziqlanadi. Vaqtida kurash tadbirlari o'tkazilmasa barglar va mevalar to'kilib ketadi. Bog' atrofida changli ko'chalar bo'lsa, changni ko'tarilib daraxt barglariga o'tirishini zararkunandani ko'payishiga qulay sharoit tug'diradi. Qurg'oqchilik o'rgimchakkalarini ko'payishiga olib keladi.

### Kurash choraları

- erta ko'klamda yoki kech kuzda daraxtlarning tanasini nobud bo'lgan po'stloqlardan tozalash va tushgan chiqindini yoqib tashlash;
- daraxtlar tanasini ohak bilan oqlash;
- erta ko'klamda daraxtlarin shox-shabbasi uchidan kesib siyraklantirish;
- bog' qator orasini kuzda chuqur (40-45sm) qilib shudgorlash;
- daraxt atrofini yaxshilab chopiq qilib qo'yish;
- qishda yaxob suvi berish.

### Nok shira biti

Voyaga yetgani va lichinkalari nok kurtaklari, barglari, gullari va ingichka novdalarining shirasini so'rib, daraxtlarni juda ham nimjon qilib qo'yadi. Qattiq zararlangan barglar qorayib to'kilib ketadi. Nok shira bitiga qarshi kurash olib

borilmasa, iyul boshlaridayoq daraxtlar batamom bargini to`kib yuboradi. Zararlangan daraxt novdalari qing`ir-qiyshiq, mevasi qattiq, bemaza bo`lib, ko`pincha shira bitining yopishqoq axlatiga belanadi. Shira biti voyaga yetganda nok daraxtlarining shoxlarida va qisman tanasidagi po`stloq ostida qishlaydi. Daraxt kurtak yozishdan sal oldin shira bitlari juftlashadi va tuxum qo`ya boshlaydi. Tuxumini shoxlarning uchiga va kurtaklar yaqiniga qo`yadi. Voyaga yetgan shira bitlari yozda ham, kuzda ham daraxtdan daraxtga o`taveradi, shu bilan birga ular kuzda to`planib qishlaydi.

### Kurash choralari

- kuzda xazon barglarni to`plab yoqib yuborish;
- daraxt tanasini eski po`stloqlardan tozalash;
- daraxt atrofini yaxshilab chopiq qilib qo`yish;
- daraxtlar tanasini ohak bilan oqlash.

### Kaliforniya qalqondori

Kaliforniya qalqondori meva daraxtlariga, rezavor meva, butalarga va manzarali o`simgiliklarga zarar yetkazadi. Kaliforniya qalqondori juda ko`payib ketganda daraxt po`stlog`i yorilib ketadi, shoxlarini va xatto butun daraxtlarni quritib qo`yadi, mevalardagi shirani so`rib, to`q qizil dog` tushiradi. Kaliforniya qalqondori mevali daraxtni shoxi, novda, barg, daraxt po`stlog`i va mevasini zararlaydi. Natijada daraxtlar kam hosil beradi, kuchli zararlanganda qurib qolishi mumkin. Katta daraxtlarda kaliforniya qalqondori daraxt po`stlog`ida bo`ladi. Daraxt po`stlog`ida uzun yoriqlarning paydo bo`lishi ushbu qalqondorlarning ko`pligidan dalolat beradi.

### Kurash choralari

- erta ko`klamda butalgan shox va novdalarni yoqish;
- daraxtlar tanasi tozalanib, eski po`stloqlarni yoqish;
- kaliy va fosforli o`g`itlar bilan o`g`itlash va sug`orish;
- bog`larni yoschartirish;

- kuz va erta bahorda daydi lichinkalarga qarshi peretroidli yoki imidakloprid asosli insektitsidlar ishlatish.

### **Akatsiya soxta qalqondori**

Soxta qalqondor lichinkasi kaliforniya qalqondoridan kattaroq bo`ladi, bahorda tez ko`payadi va o`zidan shira ajratadi. Urg`ochi soxta qalqondor tuxumini o`zining himoya qobig`i ostiga qo`yadi. Tuxumdan chiqqan qalqondor lichinkalari kuzgacha bargda oziqlanadi va keyin shox yoki novdalarga qaytadi. So`ng suyuqlik ishlab chiqaradi va o`ziga himoya qobig`i hosil qiladi. Asosiy zarar qalqondorlarni oziqlanishi natijasida vujudga keladi, qaysiki meva va barg yuzasida dog` hosil qiladi. Bunday mevalarni sifati past bo`ladi va qishda uzoq muddatga saqlab bo`lmaydi. Soxta qalqondorlar ko`payganda daraxt o`sishini susaytiradi. Bu zararkunandalar bahorda va yoz oylarida daraxt barglarida, kuz va qish fasllarida novda va shoxlarida yashaydi. Soxta qalqondorlarning lichinkalari va urg`ochilar novdalar, butoq va barglarning shirasini so`rib oziqlanadi. Shirasini yo`qotgan butoq, novda va barglar o`sishdan to`xtaydi va hatto ayrim qismlari qurib qoladi.

### **Kurash choralari**

- erta ko`klamda butalgan shox va novdalarni yoqish;
- daraxtlar tanasi tozalanib, eski po`stloqlarni yoqish;
- kaliy va fosforli o`g`itlar bilan o`g`itlash va sug`orish;
- bog`larni yoshartirish;
- kuz va erta bahorda daydi lichinkalarga qarshi peretroidli yoki imidakloprid asosli insektitsidlar ishlatish.

### **Binafsha rang qalqondor**

Danakli mevalarning barchasiga zarar keltiradi. Binafsharang qalqondor bir yilda ikki marta avlod berib rivojlanadi. Urug`langan urg`ochi holida ingichka novdalarda va kurtak qo`ltiqlarida qishlaydi. Binafsharang qalqondor olma daraxtining eng xavfli zararkunandalaridan biri. U daraxtning tanasi, shoxi,

novdasi va hosilini zararlaydi. Daraxtning kuchli zararlangan qismlari qurib qoladi. Daraxt tanasi va shoxida ko`pgina darz va yoriqlar paydo bo`ladi. Daraxtlar o`sishdan to`xtaydi, tanasi deyarli yo`g`onlashmaydi, shox va novdalari quriydi, hatto daraxtlar qurib qolishi ham mumkin. Binafsharang qalqondor tushgan yosh daraxtlar ikki, uch yilga bormasdan nobud bo`ladi.

### Kurash choralari

- erta ko`klamda butalgan shox va novdalarni yoqish;
- daraxtlar tanasi tozalanib, eski po`stloqlarni yoqish;
- kaliy va fosforli o`g`itlar bilan o`g`itlash va sug`orish;
- bog`larni yoshartirish;
- kuz va erta bahorda daydi lichinkalarga qarshi peretroidli yoki imidakloprid asosli insektitsidlar ishlatish.

### Olma qurti

Bu zararkunanda xammaxo`r bo`lib, 30 turdan ortiq mevali daraxtlarning mevasi bilan oziqlanadi. ko`proq olma, nok, yong`oq va olxo`rining asosiy zararkunandalaridan biri hisoblanadi. Olma qurti 1 yilda 3 ta avlod beradi. Ular g`umbak ichida katta yoshli qurt shaklida daraxt po`stloqlari orasida, boshqa himoyalangan joylarda va bog` ichidagi shoxlar ostida qishlaydi. Ertal ko`klamda bu qishlab chiqqan qurtlar g`umbakka aylanadi. Olma gullashi boshlanganda g`umbakdan kapalaklar uchib chiqib olma barglariga va meva tugunaklariga tuxumlarini qo`yadi. Tuxumdan chiqqan qurtlar barg va meva eti bilan, keyinchalik uning urug`i bilan oziqlanadi. Har bir qurt 2-3 tadan mevani zararlaydi. Mevaga kirgan joyida chiqindisini ko`rish mumkin. Qurt yetishgandan so`ng mevadan chiqib, daraxt ustida yoki yaqinida himoyalangan holda g`umbakka aylanadi.

### Kurash choralari

- bog`larda tutqich belbog`lari o`rnatish;

- pishmay to`kilayotgan olma, behi va olxo`rini har 1-3 kunda terib olib, kesib, quritish yoki molga berish;

- olma qurtini yo`q qilish uchun uning har bir avlodiga qarshi bir martadan dori purkash

### **Sharq meva qurti (Mevaxo`ri)**

Sharq meva qurti ichki karantin ob`ekti hisoblanib, olma, nok va behi daraxtlarining mevalariga xuddi olma qurti kabi zarar yetkazadi. Sharq meva qurti danakli mevalardan shaftoli, olxo`ri, o`rikka ham jiddiy zarar yetkazadi. Sharq mevaxo`ri asosan novda va mevani zararlaydi. Yangi o`sgan novda uchidan kirib o`rtasini yeydi. Meva ichiga kirib danak atrofini yeydi va yetilib meva ichidan chiqadi va g`umbakka aylanadi.

### Kurash choralari

- bog`larda tutqich belbog`lari o`rnatish;

- pishmay to`kilayotgan olma, behi va olxo`rini har 1-3 kunda terib olib, kesib, quritish yoki molga berish;

- meva qurtini yo`q qilish uchun uning har bir avlodiga qarshi bir martadan dori purkash

### **Olxo`ri mevaxo`ri**

O`zbekistonda daraxtlarga katta zarar yetkazadi va ikki avlod berib rivojlanadi. Janubiy tumanlarda uchinchi avlod ham rivojlanishi mumkin. Mevaxo`r qurtlari olxo`ri, olcha mevalari, ba`zan tog` olcha, o`rik, shaftoli mevalariga zarar yetkazib, ularning to`kilib ketishiga sabab bo`ladi. Ma'lumotlarga ko`ra, birinchi avlod qurtlari 5-12 foiz mevani, ikkinchi avlod qurtlari esa 70-85 foiz mevani zararlaydi. Olxo`ri va olma qurtlarining hayot kechirishi ko`p jihatdan bir-birinikiga o`xshaydi, ammo olxo`ri qurti danakli mevalarga ko`proq zarar yetkazadi. Birinchi avlodning kapalagi aprel-may oylarida mevalarga tuxum qo`yadi. Olxo`rining zararlangan joyidan aksariyat hollarda yelim chiqib turadi. Ko`pincha bunday meva chirib, to`kilib ketadi. Qurtlar mevalar etini kemirib, uning ichiga qarab yo`l ochadi.

## Kurash choralari

- erta ko'klamda daraxtlarning atrofini chopish;
- daraxtlarning tanasini ko'chgan po'stloqlardan tozalab, yoqish;
- may oyida yelimi oqib turgan mevalarni terib olib yo'qotish;
- daraxtlar tanasiga poxol, qop boylab qo'yish;
- kimyoviy ishlov berish.

## Filofli kuya

Filofli kuya qurtlari olma, o'rik, bodom, nok, gilos, olcha, tog'olcha va boshqa daraxtlarning barg kurtaklari hamda meva kurtaklarini zararlaydi. Qattiq shikastlangan kurtaklar qurib qoladi. Qurt g'ilofcha ichida turadi, oziqlanish paytida qurt g'ilofchadan salgina chiqadi, ammo tanasining orqa uchi har doim g'ilof ichida turadi. Kurtaklar bo'rtib boshlashi oldidan g'ilofchali qurtlar kurtaklar yoniga o'rmalab boradi. Kurtakka chiqib olgan qurt g'ilofchasing oldingi uchini iplar yordamida kurtakka mahkamlab qo'yadi, o'zi esa kurtak ichiga o'yib kiradi. Qurtlar barglar va meva kurtaklari bilan oziqlanadi. Zararlangan kurtaklarni qurt kemirgan kichkina yumaloq teshigi borligidan bilib olish mumkin. Barglar paydo bo'lishi bilan qurtlar bargga o'tib, ichiga o'yib kiradi va parenximasini yeb bitiradi. Qattiq shikastlangan barglar sarg'ayib tushib ketadi.

## Kurash choralari

- erta ko'klamda butalgan shox va novdalarni yoqish;
- kaliy va fosforli o'g'itlar bilan o'g'itlash va sug'orish;
- bog'larni yoschartirish;
- zararkunandaga qarshi peretroidli yoki imidakloprid asosli insektitsidlar ishlatish.

## Anjir parvonasi

Anjir parvonasinig qurtlari anjir barglari va mevalariga zarar yetkazib, hosilni kamaytiradi va sifatini pasaytiradi. Ba'zan ayrim anjir turlarining hamma mevalariga zarar yetkazadi, odatda bu hasharotga qarshi kurash olib borilmaganda mevalarning 3 foizidan tortib 50 foizigacha zararlanadi.

### Kurash choralari

Birinchi va ikkinchi bo`g`in qurtlari ko`plab paydo bo`lgan davrda anjir parvonasiga qarshi kurash uchun insektitsidlар purkaladi.

### Anor qurti

Anor qurti anor mevasiga zarar yetkazadi. Ayrim joylarda anorning qurtdan zararlanishi 11,7% dan 94,2% gacha boradi (Rojkov), ayniqsa keksa daraxtlar ko`p zararlanadi (Kuznetsov). Ba'zan anor qurti anor daraxtlarining po`stlog`iga ham zarar yetkazib, ularni quvvatdan ketkazib qo`yadi.

### Kurash choralari

- anor qurtining ko`payib ketishiga yo'l qo`ymaslik uchun to`kilgan anorni muntazam terib olish kerak.
- daraxtlarning ildizga yaqin qismiga ohak surish tavsiya etiladi.
- anor qurtini yo`qotish uchun davomli ta`sir etuvchi insektitsidlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### *Mevali daraxtlarni kasalliklardan himoya qilish*

#### **Teshikchali dog`lanish (Klyasterosporioz)**

Bu kasallik danakli meva daraxtlarini, ayniqsa, o`rikning keng tarqalgan kasalligi hisoblanadi. Kasallik bilan o`simliklarning asosiy yer ustki qismlari: kurtaklari, gullari, gul tugunlari, mevalari, barglari, novda va shoxlari kasallanadi. Kasallik namgarchilik ko`p bo`lib, kunduz kuni iliq bo`lgan vaqtida yaxshi rivojlanadi. Kasallikka uchragan kurtaklar nobud bo`ladi. Mevalarda kasallik har xil ko`rinishda yuzaga keladi. O`rik mevalarida avvaliga nuqta shaklida juda kichik qizg`ish-qo`ng`ir dog`lar paydo bo`ladi. Mevalarning yiriklashishi bilan

dog`larham sekin-asta kattalashib boradi. Kasallikka uchragan bargning ko`pchiligi yoki bir qismi quriydi va to`kilib ketadi. Bu esa qishlovchi kurtaklarning uyg`onishiga olib kelib, bunday daraxtlar sovuqqa chidamsiz bo`lish bilan birga kelgusi yili esa kam hosil beradi. Agar kasallik kuchayib ketsa, bahorda barglar to`kilishi mumkin. Barg va mevani zararlab hosildorlikni 30-40% ga pasaytiradi, meva sifati buziladi. Agar bahorda yog`ingarchilik ko`p bo`lsa mevani kuchli zararlaydi.

**Kurash choralarini:** Tinim davrida fungitsidni sepish bilan birga kasallangan novdalarni kesib yo`q qilish yaxshi samara beradi.

### **Monilioz (Kuydirgi) kasalligi**

Kasallik bahorda meva daraxtlarining gullari va kurtaklarini nobud qiladi. Urug`li va danakli meva daraxtlarida meva chirishi juda keng tarqalgandir. Mevaning chirishi qo`ng`ir rangli kichkina dog`dan boshlanadi va tez rivojlanib butun mevani qoplaydi. Natijada meva eti yumshab, qo`ng`ir tusga kiradi va mevaning ta'mi o`zgaradi. Agar meva uni yig`ish yoki tashish davrida zararlansa, bunday mevalarda yostiqchalar hosil bo`lmay qorayib yoki ko`kish rangga kirib mumlanib qoladi. Mumlangan asosiy mevalar yerga to`kilib daraxt tagida qishlaydi. Daraxtlarda ham ko`pincha mumlangan mevalar tushmasdan qolishi ham mumkin. Zamburug` mevaga faqat jarohatlangan joydan kiradi, ayniqsa, bunday jarohatlarni olma qurti, qushlar, do`l yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, zamburug` qo`tir (pashsha) ta`sirida yorilgan joydan ham kiradi. Zamburug` sporalarining mevada tez rivojlanishi uchun optimal harorat 24-28 darajadir. Keyinchalik zararlangan mevalar mumlanib qolib, zamburug` shu mumlangan joylarda qishlab chiqadi.

**Kurash choralarini:** Bu kasallikning oldini olish uchun qishlovchi infeksiyasi bo`lgan mumlangan mevalarni terib yo`qotish lozim.

### **Un shudring**

Ushbu kasallik namgarchilik ko`p bo`lib, kunduz kuni iliq bo`lgan paytlarda yaxshi rivojlanadi. Kasallik asosan barg, novda va gullarga tushadi. Kasallangan barglar yaxshi rivojlanmay qayiqsimon bo`lib qoladi. Un shudring bilan asosan meva berayotgan katta daraxtlar qattiq zararlanadi. Kasallik shaftoli o`sadigan hamma viloyatlarda juda keng tarqalgandir. Ayniqsa, yosh ko`chatlar bu kasallik bilan qattiq zararlanadi. Kasallikning belgilari barglarda, yosh novdalarning uchki qismida namoyon bo`ladi. Mevalarda esa oq namatsimon g`uborlar hosil bo`ladi. Novdalarning uch qismi quriydi. Kasallangan mevalar esa mazasini yo`qotib chiriydi. Mevali daraxtlar bu kasallikka mevalarining danagi qattiqlashgunicha chalinadi undan so`ng kasallik ta`sir etmaydi.

### Kurash choralar

- bog`larda doimo yuqori agrotexnik tadbirlarni o`tkazish;
- tuproqqa ishlovlar berish, vaqtida sug`orib turish;
- zararlangan novdalarni qirqib, bog`dan chiqarib tashlash;
- kimyoviy ishlov berish.

### Parsha (Qo`tir) kasalligi

**Shaftoli** – kasallik novda va barglarni zararlaydi ammo haqiqiy zarar mevada ko`rinadi. Yomg`ir yoki shamol orqali tarqaladi va mevalarni zararlaydi. Parsha kasalligi yuqqandan keyin 15-20 kun o`tib uning belgilari paydo bo`ladi.

**Olma, nok** –bu kasallik bilan barglar, mevalar, novdalar, barg bandlari, meva bandi, gul kosa barglari zararlanadi. Kasallangan barglarning ustki tomonida yumaloq qo`ng`ir dog`lar, orqa tomonida esa duxobasimon to`q yashil g`uborlar paydo bo`ladi, natijada barglar quriydi va to`kilib ketadi. Kasallikning birinchi tarqalish manbai – kasallik zamburug`lari qishlab chiqqan barglar hisoblanadi.

Kasallikni dastlabki belgilarining ko`rinishi gul yaproqlarini to`kilish davriga to`g`ri keladi. Buning natijasida hosil bo`lgan zamburug` konidiyalari kasallikning

yangidan tarqalishiga sabab bo`ladi. Ob – havoning kelishiga qarab kasallikning yashirin davri 8-12 kun bo`lishi mumkin. Yoz mobayinida zamburug` 8-10 avlod beradi. Bu kasallik bilan ko`proq katta yoshdagi daraxtlar va qalin ekilgan daraxtlar kuchli zararlanadi.

### Kurash choralari

- bog`larda doimo yuqori agrotexnik tadbirlari o`tkazish;
- tuproqning qurib qolishiga yo`l qo`ymaslik;
- zararlangan novdalarni qirqib, bog`dan chiqarib tashlash;
- bog` qator oralarini kuzda shudgorlash, yaxob suvi berish;
- fosforli va kaliy o`g`itlar bilan o`g`itlash;
- kimyoviy ishlov berish.

### Shaftolining barg bujmayishi

Kasallik namgarchilik ko`p bo`lib, kunduz kuni iliq bo`lgan vaqtida yaxshi rivojlanadi.

**Shaftoli** – bahorda barglar bujmayib qalinlashadi va yashil rang o`rniga qizil yoki sariq bo`ladi. Kasallangan barglar yoz boshida to`kiladi. Novdalarni ham zararlab qurishiga olib kelishi mumkin. Kasallik shaftolining barg va novdalarini hamda mevasini zararlaydi. Kasallikning bu ikki formasi ham erta bahorda vegetatsiyani boshlanishida paydo bo`ladi. Kurtakdan yozilgan barglar sarg`ish yoki qizg`ish – pushti rangga kiradi. Kasallangan barglar sog`lom barglardan yirik bo`ladi, chunki bu barglardagi to`qimalarning o`sishi bunga olib keladi. Ayniqsa bir yillik kasallangan novdalarning pastki qismidan o`sgan barglar juda o`sib ketadi. Ikki haftadan oshgan barglar kasallanmaydi. Kasallanib yalang`ochlanayotgan novdalarning barglarini to`kilishi pastki tarafidan boshlanganligi tufayli bunday novdalar popuksimon bo`lib qoladi. Ko`pchilik kasallangan novdalar quriydi, qolganlari esa birinchi sovuqdayoq sovuq urib ketadi. Kasallik natijasida barglarning to`kilib ketishi daraxtning rivojlanishini

susaytiradi va yaxshi rivojlanmagan daraxtlar sovuqqa chidamsiz bo`lib qoladi, shu sababli ham bunday daraxtlar tez quriydi.

### Kurash choralar

- bog`larda doimo yuqori agrotexnik tadbirlari o`tkazish;
- zararlangan novdalarni qirqib, bog`dan chiqarib tashlash;
- fosforli va kaliyli o`g`itlar bilan o`g`itlash;
- kimyoviy ishlov berish.

### **Olxo`rining karmashka (Cho`ntakcha) kasalligi**

Shishgan olxo`ri kasalligi ko`p yog`ongarchilik bo`ladigan tog` va tog` oldi tumanlarda keng tarqalgandir. Kasallik bilan olxo`ri mevasi kasallanadi. Kasallangan meva qopsimon bo`lib qovjirab qoladi. Mevaning etli qismi juda o`sib ketib, danak hosil qilmaydi. Mevaning ichida danagi bo`lmay, uzunchoq bo`lib qolgani uchun karmashka (cho`ntak) yoki shishgan olxo`ri deyiladi. Yozning o`rtalarida (iyun oyiga oxiri – iyul oyining boshlarida) kasallangan mevaning sirti kulrang yoki oqimtir bo`ladi.

**Kurash choralar**. Kasallanib to`kilgan mevalarni terib olib, uni yo`qotish zarur.

### **Urug`lik va danakli meva daraxtlarining zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurashdagagi agrotexnik tadbirlar:**

Kuzda xazon yig`ishtirilib ko`miladi, so`ngra bog` qayta haydaladi va daraxtlarning atrofi yumshatiladi.

- daraxt tanasi va yo`g`on shoxlarining ko`chgan po`stloqlari kuzda, barglar to`kilgandan keyin va erta ko`klamda ikkinchi marta qirib tushirilib, yoqib yuboriladi.

- bog`larga mineral va mahalliy o`g`itlar solinadi. Buzoqboshi qo`ng`izlar paydo bo`lmasligi uchun meva daraxtlariga go`ngni yaxshilab chiritib solish kerak.

- erta ko`klamda (dori purkashdan keyin) daraxtlarning zararlangan, yorilgan va ayrim joylariga bog` zamazkasi suriladi. Daraxtlarning tanasi ohak bilan oqlanadi.

- bog`larda mavsum davomi to`kilgan mevalarni muntazam ravishda terib, darrov xo`jalik maqsadlari uchun ishlatish yoki yo`qotish kerak.

### **III.BOB. BOTANIKA DARSLARIDA “O`SIMLIKLARNI KASALLIK VA ZARARKUNANDALARDAN HIMOYA QILISH” MAVZUSINI O`QITISH TARTIBI.**

Maktablarda o`quvchilar bilan olib boriladigan ta`lim-tarbiya ishlarining shakllari turli-tumandir. Biroq darslar o`quvchilarga ta`lim-tarbiya berishning markazi hisoblanadi. Shunga ko`ra tabiatni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirishning asosiy shakli ham dars bo`lishi kerak. Botanikanini o`qitishga oid metodik adabiyotlarda darslarning uchta tipi ko`rsatilgan: bular kirish darslari, tema mazmunini ochib beruvchi darslar va yakuniy darslardir. Binobarin, o`qituvchi o`simliklarni muhofaza qilish tushunchasini, asosan ana shu qayd qilingan tipdagи darslarda shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Buning uchun u avvalo, Botanika kursining har bir o`quv predmetida o`simlikni muhofaza qilish umumiyl tushunchasining qaysi xususiy tushunchalarini shakllantirish zarurligini belgilab oladi. Keyin esa o`simliklarni muhofaza qilish to`g`risida xususiy tushuncha tarkibiga kiruvchi qanday elementlar qaysi tema mazmuniga aloqador ekanligi aniqlanadi va ularni chorak hamda yillik tematik rejada belgilab olinadi. Masalan, botanika darslarida o`qituvchi osimlikni muhofaza qilish umumiyl tushunchasidan o`simliklar dunyosini muhofaza qilishga xususiy tushunchasini o`quvchilar ongida shakllantirishi kerak. Biroq, bu xususiy tushuncha birdaniga yaxlit holda o`quvchilar ongida shakllanmaydi. Bu tushuncha kamayib ketgan

noyob o'simliklarni oziq-ovqat, dori-darmon, sanoatining turli tarmoqlarida xom ashyo sifatida ishlatiladigan o'simliklarni, muhofaza qilish, gerbitsidlar va defoliantlar qo'llash tufayli foydali o'simliklarning zararlanishi, bunday zararlanishning oldini olish, chorva mollarini yaylovarda nazoratsiz boqish tufayli o'simliklarning zararlanishi, uning oldini olish, soya-salqin beruvchi noyob daraxt turlari, ularni saqlash, ekilgan ko'chatlarni qarovsizlikdan, suvsizlikdan qurib qolish hodisalarining oldini olish, tabiatda ko'ngil ochish tufayli ayrim o'simliklarning (lola, anzur piyoz) yoppasiga qirilishiga qarshi kurashish, botanik ekskursiyalar vaqtida gerbariy uchun haddan tashqari ko'p o'simliklar yig'ilishining zararli ekanligi haqidagi tushunchalar zaminida asta-sekin shakllantiriladi va rivojlantirib boriladi.

O'qituvchi o'simlikni muhofaza qilish tushunchasining nihoyatda murakkab ekanligi va uni bosqichma-bosqich shakllantirish mumkinligini doim yodda tutishi zarur. Har bir tema va darsni o'tayotganda ana shu tushunchaning ayrim elementi haqida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tavsiyalar botanika darslarida tabiatni muhofaza qnlishga oid tushunchalarni rivojlantirishga xam taalluqlidir.

Botanikani o'qitishda qo'llaniladigan metodlar 3 guruhgaga:

- og`zaki metodlar,
  - ko'rgazmali metodlar,
  - praktik (amaliy) metodlarga bo'linadi.
- 1) **og`zaki metodlar** guruhiga suhbat tushuntirish, hikoya, leksiya va o'quvchilarning axboroti kabilar;
  - 2) **ko'rgazmali metodlarga** esa tajriba, tasviriy, tabiy ob'ektlarni namoyish qilish;
  - 3) **praktik metodlarga** esa kuzatish, tajriba va ob'ektlarni aniqlash kabi metodlar kiradi.

Botanikani o'qitishda qo'llaniladigan metodlar bilan bir vaqtda o'simliklarni muhofaza qilish tushunchalarini shakllantirish ham qo'llaniladi. Odatda 3—4-

sinflarda o'qituvchi suhbat, tushuntirish, tajriba va tabiy hamda tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, tirik osimliklar, ularning organ hujayralarida sodir bo'ladigan hodisalarni kuzatish metodlaridan foydalanadi. Masalan, O'simliklarga turli oziq moddalar yetishmasligini tushuntirishda ham tajriba metodiga murojaat qilinadi. Tabiiy landshaft yoki organizmlarning hayot faoliyatini tushuntirishda esa xikoya metodlaridan foydalaniladi. Xuddi shuningdek tabiat bilan organizm o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirish ko'rgazmali, og'zaki metodlar vositasida amalga oshiriladi, Xulosa qilib aytganda o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish uchun alohida metodlar qo'llanilmay, balki botanikani o'qitishdagi metodlardan keng foydalaniladi.

O'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirishda dars bilan bir vaqtda, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Darsdan tashqari ishlar o'quv reja bilan bog'liq bo'lib, barcha o'quvchilar uchun majburiy hisoblanadi. U botanika kabineti, tirik burchak, maktab uchastkasida o'tkaziladi. Sinf o'quvchilari, o'quvchilar gruppasi yoki ayrim o'quvchilar tomonidan o'simlik ustida qo'yilgan tajribalar, kuzatishlar, gerbariy va kolleksiylar tayyorlash yoki diafilm, kinofilmлarni ko'rish, darsdan tashqari ishlarning ayrim turlaridir. Bu ishlar o'tkazilganda albatta o'simliklarni muhofaza qilish masalasini chetlab o'tmaslik kerak. Bitanika fani bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar esa, aksincha ixtiyoriydir. Botanika bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar, odatda individual, gruppa tarzidagi va ommaviy mashg'ulotlarga bo'linadi. Bularning har biri o'z navbatida turli formalarni qamrab oladi. Masalan, individual yoki ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'simlikni muhofaza qilish tushunchalarining ayrim elementlarini shakllantirish maqsadida kitob, broshyura, maqolalar o'qish tavsiya etiladi, so'ngra o'qilgan adabiyot bo'yicha suhbat o'tkaziladi, ayrim vaqtarda esa o'quvchilarning bu sohadagi axborotlari dars jarayonida fan to'garagida tinglanadi. Maktab territoriyasi va atrofidagi daraxt, buta yoki xona o'simliklarining o'quvchilar tomonidan parvarish qilinishi ham individual tarzda tashkil qilinadi.

O'quvchilar gruh bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashgulotlarda, chunonchi, yosh tabiatshunoslar to'garagining mashg'ulotlarida yoki botanika kabinetini jihozlashga oid ishlarda ham tabiatni muhofaza qilish tushunchasi shakllantiriladi va rivojlantiriladi. O'quvchilar gruhi bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulot tarzida tabiatga ekskursiya o'tkazish, foydali o'simliklarning urug` va mevalarini yig`ish, noyob o'simliklarni asrash, xona o'simliklarini parvarish qilish va ko'paytirish, botanika kabineti qoshida «tabiatni sevuvchilar» burchagini tashkil etish kabi ishlar ham o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirishda g'oyat muhimdir.

Botanika darslarida o'simliklar dunyosini muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish tabiatshunoslik o'quv predmetining birinchi darslaridan boshlanadi. Masalan, o'qituvchi, «Gulli o'simliklar bilan umumiy tanishish» mavzusini o'tishda avvalo o'simliklarning inson hayotidagi va tabiatdagি ahamiyatini mahalliy sharoitda tarqalgan va o'quvchilarga tanish bo'lgan o'simliklar misolida tushuntiradi. Bunda o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish maqsadida ko'proq suhbat metodidan foydalilanadi. Suhbatda o'qituvchi yashil o'simliklar hayvonlar va inson uchun zarur oziq va havo yetkazib berishini, o'simliklardan inson oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon tayyorlashi, bundan tashqari o'simliklar xo'jalik extiyoji uchun va sanoatning turli sohalarida xom ashyo tarzida ishlatilishini tushuntiradi, ular jamiyat boyligi ekanligi va bu boylikni saqlash hamda ko'paytirish bilan faqat katta yoshdagi kishilar emas, balki yoshlar ham shug`ullanishi zarur ekanligini uqtiradi. Shuningdek, mamlakatimizda 17520 ta yuksak o'simlik turlari borligi, ulardan 400 tasi yem-xashak, 380 tasi dorivor, 100 lab turi oziq-ovqat va texnika maqsadlarida ishlatilishi eslatilib, ular bitmas-tuganmas boylik ekanligi ta'kidlanadi. Bir odam o'zining hayot faoliyatida 400 daraxt tanasi massasiga teng yog`ochni qurilish materiali, mebel, gugurt va qogoz tasirlash uchun xom ashyo sifatida ishlatadi. Shu mavzuga so'ng keyingi darslarda yuqoridagi fikrlar oydinlashtiriladi.

«Urug`» mavzusini o'tayotganda o'qituvchi urug`ning tuzilishi va ximiyaviy tarkibi haqida o'quvchilarga bilim berish bilap bir qatorda juda ko'p o'simlik urug`lari tabiatda har xil usullar, masalan, suv, shamod, xayvonlar va odamlar orqali tarqalishi to'g`risida gapiradi va o'simlik urug`larining nobud bo'lismiga yo'l qo'ymaslik hamda ularni yig'ib ilmiy tekshirish institutlari, biologik stansiyalar, tabiatshunoslik bog`lari, idoralariga topshirish zarurligini uqtiradi. Albatta, bu yerda gap insonlar tomonidan parvarish qilinadigan madaniy o'simliklar ustida emas, balki tabiiy sharoitda yashaydigan inson parvarishidan chetda turgan noyob daraxtlar, butalar, o't o'simliklar ustida ketadi, «Ildiz» mavzusi xam tabiatni muhofaza qilish tushunchasini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

“Ildiz” o'simlik hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, u o'simlik tanasini tuproqda mustahkam o'rashishini ta'minlaydi, o'simlik poyasi, novdasi, barg, gul va mevalariga suv va unda erigan mineral moddalarni tuprokdan olib beradi. Shunga ko'ra dalalarda hamda tomorqada amalga oshiriladigan asosiy agrotexnik tadbirlar, ya'ni kultivatsiya, mineral o'g'it solish va hokazolar o'simlik ildizining normal o'sishi uchul zarur sharoitni yaratishga qaratilishi kerak. O'quvchilar xona o'simligini parvarish qilish jarayonida ham yuqoridagi talabga rioya diladilar. Binobarin, xona o'simliklarini havo o'tkazmaydigan idishlarga (chelak, kovserva bankalariga) ekish, sopol tuvaklarni yog'li bo'yok bilan bo'yash zararli ekanligi, chunki bunday hollarda o'simlik ildizlari nafas olish uchun kislorod bilan yetarli miqdorda ta'minlana olmasligi tushuntiriladi. Shuningdek, ba'zi o'simlik ildizlari tuproqni azot bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, dalalarida almashlab ekishni joriy etish ekinlar hosilini oshirishda juda muhim tadbirlardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Almashlab ekish joriy etilganda tuproq azot zapaslari bilan boyitiladi va u donador holatga keladi. Donador tuproqda esa havo bilan suvning almashinishi yaxshilandi. Bu esa ekinlar ildizini normal o'sishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari o'simlik ildizi tuproqni yemirilishidan (eroziyadan) saqlaydi, ko'chma humlarning, chang-to'znlarning bir tomonidan ikkinchi tomonga ko'chib yurishini bartaraf

etadi. Ana shuning uchun ham jar yoqalariga, cho'llarga, ariq bo'ylariga buta, daraxt va o't o'simliklari ekish nihoyatda foydali ekanligi tusuntiriladi.

**“Barg”** o'simlik hayotida muhim rol o'laydi, u yashil o'simlikning «oshqozonidir». Bargda organik moddalar tayyorlanadi. O'quvchilar buni tajriba orqali aniqlashlari lozim. Ular organik moddalarning jumladan kraxmalning yashil bargda suv hamda CO<sub>2</sub> gazidan quyosh yorug`ligida tayyorlashini bilib oladilar va unga ishonch hosil etadilar. Binobarin barcha organik moddalar ma'lum sharoit mavjud bo'lgandagina sintezlanadi. O'qituvchi barglarning tashqi va ichki tuzilishi, funksiyalari va ahamiyati to'g`risida bilim berar ekan, ana shu bilimlar zaminida o'simliklar bargining atrof-muxitni muhofaza kilishdagi rolini ochib beradi. Bunda o'simlik barglariga zarar yetkazishini fotosintez protsessining intensivligini pasaytirishli, barglarining yulib tashlanishi o'simliklarning tamomila xalok bo'lishiga olib kelishi yaxshi tushuntirilishi kerak.

Barg mavzusini o'tishda didaktik kartochkalar ham o'simlikni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirishga yordam berishi mumkin.

## X U L O S A

1. Mazkur bitiruv malakaviy ishda mavuning bugungi kundagi o'ta dolzarbligi ko'rsatib o'tilgan. Umumta'lim maktablari botanikadarslarida ilk ekologik tushunchalarni shakllantirishda poydevor vazifasini bajarishi kerak, bo'lган ekologik ta'lim tarbiya mohiyati yoritilib, unda tabiatning tarkibiy qismi to'g'risidagi asosiy tushunchalari va qonuniyatları, osimliklar dunyosi uning yashash muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ba'zi xususiyatlaru kiritilgan.

2. Respublikamizdagio'suvchi o'simliklarni turlari biologik xususiyatlari,botanik tarifi,tarqalish areali atroflicha tahlil qilingan.

Yer yuzidagi o'simliklar dunyosi nihoyatda turli-tuman. Shuning uchun ularning xususiyati, yashash joyi o'sishi, rivojlanishi har xil bo'ladi. Ma'lumki, o'simliklar yer yuzasida keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida tabiiy tanlanish asosida o'sib, rivojlangan. Shu bilan birga ular turli kasallik va zararkunandalar ta'sirida turlarining qirilib ketishiga sabab bo'lgan.

6. O'zbekistonningbarcha hududlarida o'ziga xos o'simliklari, mavjud bo'lib xalq xojaligidakeng miqyosda foydalanilib kelinmoqda. Bugungi xalq xo'jaligining asosiy ekinlaridan biri g'oza (paxta) o'simligi etishtirishda ham turli zarakunandalar ta'sirida kasalliklar poydo bo'lmoqda uni mxofazasi yuzasidan kompleks agrotexnik tadbirlar qo'llash tadbirlari ishlab chiqildi.Ulardan tamaki tripisi, kuzgi tunlam, karadrina va boshqa zarakunandalardir.

G'alla ekinlarida bug'doy tripisi, g'alla shirasi ta'sirida G'alla zang kasalliklari pudo bo'ladi. Ularga o'z vaqtida qo'llanilgan tadbirlar hosilni saqlab qolishga imkon yaratadi.

Sabzavot poliz, kartoshka ekinlarinik zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Respublikamizda ushbu ekinlarni etishtirish imkoniyatlari ko'p bo'lsada lekin turli xil zararkunandalar ta'sirida zararlanish hollari tez-tez uchrayda.Buning uchun ko'pgina kimyoviy

tadbirlar amalga oshirish evaziga mo'l hosil etishtirilmoqda. Bitiruv malaskaviy ishning asosiy qismida mevali daraxtlar turlari, ularning xalq -xojaligidagi ahamiyati yoritildi. Shu bilan birga mevali daraxtlar zarakunandalari va ularning paydo qiluvchi kasallikkleri ularni oldini olidsh va qarshi kurashish chora tadbirlari yoritildi.

Keyingi boblarida mavzuning botanika darslarida o'qitilish taribi quyidagicha yoritildi. Maktablarda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining shakllari turli-tumandir. Biroq darslar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning markazi hisoblanadi. Shunga ko'ra tabiatni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirishning asosiy shakli ham dars bo'lishi kerak. Botanikanini o'qitishga oid metodik adabiyotlarda darslarning uchta tipi ko'rsatilgan: bular kirish darslari, tema mazmunini ochib beruvchi darslar va yakuniy darslardir. Binobarin, o'qituvchi o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini, asosan ana shu qayd qilingan tipdagи darslarda shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Buning uchun u avvalo, Botanika kursining har bir o'quv predmetida o'simlikni muhofaza qilish umumiyl tushunchasining qaysi xususiy tushunchalarini shakllantirish zarurligini belgilab oladi. Keyin esa o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risida xususiy tushuncha tarkibiga kiruvchi qanday elementlar qaysi tema mazmuniga aloqador ekanligi aniqlanadi va ularni chorak hamda yillik tematik rejada belgilab olinadi. Masalan, botanika darslarida o'qituvchi osimlikni muhofaza qilish umumiyl tushunchasidan o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga xususiy tushunchasini o'quvchilar ongida shakllantirishi kerak. Biroq, bu xususiy tushuncha birdaniga yaxlit holda o'quvchilar ongida shakllanmaydi. Bu tushuncha kamayib ketgan noyob o'simliklarni oziq-ovqat, dori-darmon, sanoatining turli tarmoqlarida xom ashyo sifatida ishlatiladigan o'simliklarni, muhofaza qilish, gerbitsidlar va defoliantlar qo'llash tufayli foydali o'simliklarning zararlanishi, bunday zararlanishning oldini olish, chorva mollarini yaylovlarda nazoratsiz boqish tufayli o'simliklarning zararlanishi, uning oldini olish, soya-salqin beruvchi noyob daraxt turlari, ularni saqlash, ekilgan ko'chatlarni qarovsizlikdan, suvsizlikdan qurib qolish hodisalarining oldini olish, tabiatda ko'ngil ochish tufayli ayrim

o'simliklarning (lola, anzur piyoz) yoppasiga qirilishiga qarshi kurashish, botanik ekskursiyalar vaqtida gerbariy uchun haddan tashqari ko'p o'simliklar yig'ilishining zararli ekanligi haqidagi tushunchalar zaminida asta-sekin shakllantiriladi va rivojlantirib boriladi.

O'qituvchi o'simlikni muhofaza qilish tushunchasining nihoyatda murakkab ekanligi va uni bosqichma-bosqich shakllantirish mumkinligini doim yodda tutishi zarur. Har bir tema va darsni o'tayotganda ana shu tushunchaning ayrim elementi haqida mulohaza yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tavsiyalar botanika darslarida tabiatni muhofaza qnlishga oid tushunchalarni rivojlantirishga xam taalluqlidir.

Botanikani o'qitishda qo'llaniladigan metodlar 3 guruhga:

- og'zaki metodlar,
  - ko'rgazmali metodlar,
  - praktik (amaliy) metodlarga bo'linadi.
- 1) **og'zaki metodlar** guruhiga suhbat tushuntirish, hikoya, leksiya va o'quvchilarning axboroti kabilar;
  - 2) **ko'rgazmali metodlarga** esa tajriba, tasviriy, tabiy ob'ektlarni namoyish qilish;
  - 3) **praktik metodlarga** esa kuzatish, tajriba va ob'ektlarni aniqlash kabi metodlar kiradi.

Botanikani o'qitishda qo'llaniladigan metodlar bilan bir vaqtda o'simliklarni muhofaza qilish tushunchalarini shakllantirish ham qo'llaniladi. Odatda 3—4-sinflarda o'qituvchi suhbat, tushuntirish, tajriba va tabiy hamda tasviriy ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, tirik osimliklar, ularning organ hujayralarida sodir bo'ladigan hodisalarni kuzatish metodlaridan foydalanadi. Masalan, O'simliklarga turli oziq moddalar yetishmasligini tushuntirishda ham tajriba metodiga murojaat qilinadi. Tabiiy landshaft yoki organizmlarning hayot faoliyatini tushuntirishda esa xikoya metodlaridan foydalilanadi. Xuddi shuningdek tabiat bilan organizm o'rtaсидаги munosabatlarni tushuntirish

ko'rgazmali, og'zaki metodlar vositasida amalga oshiriladi, Xulosa qilib aytganda o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish uchun alohida metodlar qo'llanilmay, balki botanikani o'qitishdagi metodlardan keng foydalilanildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston tarraqqiyotining poydevori. T.: "Sharq", 1997 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni. -T.,1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - T., 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Ta'lif Standarti T, 2001 y.
5. O'.Pratov,A.S.To'xtayeva,F.O'.Azimova Botanika Toshkent-  
“O'zbekiston”nashriyoyi 2007y
6. Mirzaev T., Fofurov Z. Tabiatni e'zozlash - umumbashariy muammo. -T.: "Yangi asr avlodi", 2001y.
7. Mahmudov M. Ta'lifni didaktik loyihalash.-T.: Abdulla Qodiriy nomli nashriyot, 2002 y.
8. . Oripov R.O. O'simlikshunoslik . Toshkent 2007 y
9. Haydarov Q.H., HaydarovP. Tabiatshunoslik asoslaridan laboratoriya mashhg'ulotlari. T. 1990.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti "Biologiya o'qitish metodikasi" ta'lif yunalishi talabasi Shaxriyeva Madina Shokir qizining Botanika darslarida "O'simliklarni kasallik va zarakunandalardan himoya qilish" mavzusini o'qitishning ahamiyati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

## XULOSA

Shaxriyeva Madina Shokir qizining Botanika darslarida "O'simliklarni kasallik va zarakunandalardan himoya qilish" mavzusini o'qitishning ahamiyati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston Respublikasi tabiiy o'simliklar dunyosi ularning tarqalishi, ko'payishi to'g'risida, botanika darslarida o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish, o'simliklarning morfologik belgilariga oid mavzularni o'qitishning ayrim usullarini yoritishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan.

Ishning birinchi bobida o'quvchilarga ekologik ta'lif tarbiya berish to'g'risida to'g'risida qisqacha ma'lumot to'plagan.

Ishning ikkinchi bobida Ozbekistonning o'simliklar qoplami, tarqalishi biologik xususiyatlari, botanik tarifi, xalq xo'jaligida foydalanilishi yoritilgan. O'simliklardan G'o'za, G'alla, Sabzavot, poliz, kartoshka, mevali daraxtlar zararkunandalari va kasalliklari turlari ularga qarshi kurash chora tadbirlari, o'simliklarni muxofaza qilish to'grisida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ishning ushichi bobida botanika darslarida o'simliklarni muxofaza qilish tartibiga oid mavzularni o'qitishning ayrim didaktik usullarini yoritishga harakat qilgan. Botanika darslarida o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish elementlarini tariflagan. Muallif bitiruv malakaviy ishini rejasidish mazmunini to'liq qamrab olgan va xar bir bob mavzulari atroficha yoritilgan va jadval, rasm bilan ish mazmunini boyitgan. Shaxriyeva Madina Shokir qizining bitiruv malakaviy ishi DTS da belgilangan barcha talablarga to'liq javob berishini hisobga olgan holda himoyaga tafsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**b.f.n. A.J.Qo'shoqov**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti "Biologiya o'qitish metodikasi" ta'lif yunalishi talabasi Shaxriyeva Madina Shokir qizining Botanika darslarida "O'simliklarni kasallik va zarakunandalardan himoya qilish" mavzusini o'qitishning ahamiyati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

## **TAQRIZ**

Shaxriyeva Madina Shokir qizining tayyorlagan bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston Respublikasi o'simliklar dunyosi ularning tarqalishi, ko'payishi to'g'risida, botanika darslarida o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish, o'simliklarning morfologik belgilariga oid mavzularni o'qitishning ayrim usullarini yoritishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan.

Ishning asosiy qismida Ozbekistonning o'simliklar qoplami, biologik xususiyatlari, botanik tarifi, xalq xo'jaligida foydalanilashi, o'simliklar zarakunadalari va kasalliklari to'grisida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Ishning oxirida Botanika darslarida o'simliklarni muhofaza qilish tushunchasini shakllantirish ekologik ta'lif tarbiyaning ahamiyati to'g'risida to'xtalgan. Muallif bitiruv malakaviy ishini rejasি ish mazmunini to'liq qamrab olgan va xar bir bob mavzulari atroflicha yoritilgan va jadval, rasm bilan ish mazmunini boyitgan.

Shaxriyeva Madina Shokir qizining bitiruv malakaviy ishi DTS da belgilangan barcha talablarga to'liq javob berishini hisobga olgan holda ijobjiy baholayman.

**Taqrizchi:**

**b.f.n. X. Qo'ng'irov**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya o’qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi talabasi Shahriyeva Madina Shokir qizining Botanika darslarida “O’simliklarni kasallik va zarakunandalardan himoya qilish ” mavzusini o’qitishning ahamiyati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

## TAQRIZ

Shahriyeva Madina Shokir qizining Botanika darslarida “O’simliklarni kasallik va zarakunandalardan himoya qilish ” mavzusini o’qitishning ahamiyati mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida O’zbekiston Respublikasi o’simliklar dunyosi ularning tarqalishi, ko’payishi to’g’risida, hamda o’simliklarning morfologik belgilariga oid mavzularni o’qitishning ayrim usullari va ekologik ta’lim tarbiyaning ahamiyatiniyoritishni o’ziga maqsad qilib qo’yan.

Bitiruv malakaviy ishi I-II-III bob,xulosa va adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

Muallif ishni Ozbekistonning o’simliklar qoplami, ularning tarqalishi biologik xususiyatlari, botanik tarifi, xalq xo’jaligida foydalanilishi, O’simliklarga ta’sir qiluvchi zarakunanda va kasalliklar ularning oldini olish chora tadbirlari va qarshi kurashish yo’llarini yoritishga harakat qilgan.

Ishning uchinchi bobida umumta’lim maktablarida botanika darslarida “kasallik va zarakunandalardan himoya qilish” mavzusini o’qitish tartibi va usullarini ko’rsatgan.Bitiruv malakaviy ishini kerakli adabiyotlar asosida keng yoritishga harakat qilgan,ishni reja asosida mazmunini to’liq qamrab olgan va har bir bob mavzulari atroficha yoritilgan va jadval, rasm bilan ish mazmunini boyitgan.

Shahriyeva Madina Shokir qizining bitiruv malakaviy ishi, bitiruv malakaviy ishilariga qo’ylgan barcha talablarga to’liq javob berada. Men ishini ijobjiy baholayman

**Taqrizchi: Navoiyshahar**

**7-umumta’limmuktadiratori:D.T.TUXFATULLINA**